

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-noyabr oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra viloyatda 4285 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 765 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,9 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 735 tasi (17,2 %) kiyim ishlab chiqarishga, 619 tasi (14,4 %) Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 430 tasi (10,0 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-dekabr holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan **34 239,5** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,2 ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	34 239,5	109,2
Namangan shahar	10 034,4	107,4
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	906,1	107,8
Kosonsoy tumani	1 646,9	109,1
Namangan tumani	1 662,3	108,3
Norin tumani	325,4	109,7
Pop tumani	886,5	115,6
To'raqo'rg'on tumani	6 081,6	107,2
Uychi tumani	1 785,6	107,9
Uchqo'rg'on tumani	954,4	106,8
Chortoq tumani	961,4	118,1
Chust tumani	2 939,5	114,3
Yangiqo'rg'on tumani	515,1	112,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2025- yil yanvar-noyabr oylarida 10 854,5 ming so'm (2024- yil yanvar-noyabr oylarida 8726,1 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,0 %ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-noyabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 27 906,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,5 %)ni tashkil etgan holda elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 5 738,3 mlrd so'm (16,8 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 427,2 mlrd so'm (1,2 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 167,8 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-noyabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 6 741,2 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 56,9 % ga kamaygan), 354,7 tonna paxta tiviti(lint) (54,5 % ga kamaygan), 27 514,0 tonna Ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (18,5 % ga ko'paygan), 21 735,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (10,8 % ga kamaygan) hamda 5 653,9 tonna tozalanmagan paxta yog'i (42,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Paxta chigiti, tonna	45158,7	30426,1	25346,7
Paxta tiviti (lint), tonna	1724,1	1524,7	884,8
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	37200,0	36300,0	41219,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	39701,9	28133,7	29323,5
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	5744,0	12602,5	6416,6
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	7146,0	8455,0	2329,4
Paxtadan yigirilgan tikuv iplari, tonna	41401,8	45769,0	42929,1
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	1355,3	7547,2	6251,3

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 39,0 % (2025-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,8 % (2025-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,9 %)ni, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalari, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatishning ulushi esa–10,0 % (2025-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,2 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 1,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,5 % (8,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 17,1 % (16,0 %), quyi texnologiyali 73,9 % (74,5 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 98,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 76,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr *	2024-yil yanvar- noyabr*	2025-yil yanvar- noyabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	6446,9	6 104,2	6 027,2

Issiqlik energiyasi- ming. Gkal.	50,6	80,6	61,9
-------------------------------------	------	------	------

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 20,4 % ga ko'payish, oqava suvlarning shلامي 66,4 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 16,4 % ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- noyabr*	2024-yil yanvar- noyabr*	2025-yil yanvar- noyabr
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	116,5	143,2	172,5
Oqava suvlarning shلامي - mlrd.so'm	9,8	9,0	15,0
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	35,2	60,4	70,3

*2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 17 763,0 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 53,5 % ni tashkil etgan.



**2024-yil yanvar-noyabr oylari uchun kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayta aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslariga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

N. Abduraxmonova
69 227-84-80 (5010)

Manzil:

**160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.**
